

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA WHISTLEBLOWER (XABAR BERUVCHI) LARNI HIMOYA QILISHNING XALQARO STANDARTLARI VA O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

Ismatullayeva Madina Xayriddin qizi

Jamoat Xavfsizligi Universiteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20795451>

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiyaga qarshi kurashishda whistleblower (xabar beruvchi)larni himoya qilish institutining nazariy-huquqiy asoslari, xalqaro standartlari hamda O‘zbekiston Respublikasida ushbu institutni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot davomida BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, Yevropa Ittifoqining 2019/1937-sonli Direktivasida belgilangan standartlar hamda AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlari tajribasi o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag‘batlantirish va himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar, mavjud muammolar va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Tadqiqot natijasida whistleblowerlarni himoya qilishning samarali modeli sifatida huquqiy kafolatlar, institutsional mustaqillik, maxfiylikni ta‘minlash va qasos choralaridan himoyalash mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: whistleblower, korrupsiya, xabar beruvchi, korrupsiyaga qarshi kurashish, xalqaro standartlar, manfaatlar to‘qnashuvi, himoya mexanizmi, huquqiy kafolatlar, maxfiylik, anti-korrupsiya siyosati.

МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ЗАЩИТЫ ИНФОРМАТОРОВ (WHISTLEBLOWERS) В ПРОТИВОДЕЙСТВИИ КОРРУПЦИИ И ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье анализируются теоретико-правовые основы института защиты информаторов (whistleblowers), международные стандарты и опыт Республики Узбекистан в сфере противодействия коррупции.

Исследуются положения Конвенции ООН против коррупции, Директивы Европейского Союза 2019/1937, а также практика США, Великобритании, Южной Кореи и ряда европейских государств.

Особое внимание уделяется правовым механизмам поощрения и защиты лиц, сообщающих о коррупционных правонарушениях, существующим проблемам и перспективам дальнейшего совершенствования законодательства Узбекистана.

По результатам исследования обосновывается необходимость формирования комплексной системы защиты информаторов, основанной на принципах конфиденциальности, независимости и недопустимости преследования

Ключевые слова: whistleblower, информатор, коррупция, противодействие коррупции, международные стандарты, конфликт интересов, правовые гарантии, защита информаторов, конфиденциальность, антикоррупционная политика.

INTERNATIONAL STANDARDS FOR WHISTLEBLOWER PROTECTION IN COMBATING CORRUPTION AND THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN

Abstract. *This article examines the theoretical and legal foundations of whistleblower protection, international standards, and the experience of the Republic of Uzbekistan in combating corruption. The study analyzes the provisions of the United Nations Convention against Corruption, the European Union Whistleblower Protection Directive (EU) 2019/1937, and the practices of the United States, the United Kingdom, South Korea, and several European countries. Particular attention is paid to legal mechanisms for encouraging and protecting individuals who report corruption offenses, existing challenges, and prospects for improving national legislation. The findings demonstrate that an effective whistleblower protection system should be based on legal guarantees, confidentiality, institutional independence, and protection against retaliation.*

Keywords: *whistleblower, corruption, reporting person, anti-corruption policy, international standards, conflict of interest, legal guarantees, whistleblower protection, confidentiality, anti-corruption mechanisms.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Korrupsiya zamonaviy davlat boshqaruvi tizimining barqarorligi, iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarining ta'minlanishi va qonun ustuvorligini qaror toptirish yo'lidagi eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi [11;12]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar korrupsiya davlat institutlariga bo'lgan ishonchning pasayishi, investitsion jozibadorlikning kamayishi, ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi hamda davlat resurslaridan foydalanish samaradorligining pasayishiga olib kelishini ko'rsatmoqda. Korrupsiyaning latent xarakterga egaligi esa uni aniqlash va unga qarshi kurashishni murakkablashtiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kriminologiya fanida korrupsiya yuqori latentlik darajasiga ega bo'lgan jinoyatlar turkumiga kiritiladi [14;15]. Mazkur jinoyatlarning aksariyati yashirin sodir etilishi, manfaatdor tomonlarning ularni oshkor etishdan manfaatdor emasligi hamda dalillarni aniqlashdagi qiyinchiliklar sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan o'z vaqtida aniqlanmasligi mumkin. Shu sababli korrupsiyani fosh etishda ichki axborot manbalari, xususan, tashkilot ichida sodir etilayotgan qonunbuzarliklar haqida ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarning roli tobora ortib bormoqda.

So'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biri sifatida whistleblowing instituti xalqaro miqyosda alohida e'tibor qozonmoqda [1;2]. "Whistleblower" atamasi odatda davlat organlari, xususiy kompaniyalar yoki boshqa tashkilotlarda sodir etilayotgan noqonuniy xatti-harakatlar, korrupsiya, firibgarlik, mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish yoki jamoat manfaatlariga zarar yetkazuvchi boshqa holatlar haqida vakolatli organlarga yoxud jamoatchilikka xabar beruvchi shaxsni anglatadi. Mazkur institutning asosiy maqsadi noqonuniy faoliyatni erta aniqlash, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish hamda huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat.

Whistleblowerlarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyati xalqaro tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etilgan [12;16].

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yilda qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 33-moddasida korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklar haqida vijdonan va asosli ravishda xabar bergan shaxslarni himoya qilish bo'yicha zarur choralarini ko'rish tavsiya etilgan. Mazkur norma whistleblowerlarni himoya qilish sohasidagi ilk universal xalqaro standartlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Whistleblowerlarni himoya qilishning xalqaro standartlari keyingi yillarda yanada rivojlandi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqining 2019-yil 23-oktabrdagi 2019/1937-sonli Direktivasining qabul qilinishi ushbu institut rivojlanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur Direktiva a'zo davlatlardan korrupsiya va boshqa qonunbuzarliklar haqida xabar bergan shaxslarni ishdan bo'shatish, kamsitish, ta'qib qilish yoki boshqa salbiy oqibatlardan himoya qiluvchi samarali huquqiy mexanizmlarni yaratishni talab qiladi. Natijada whistleblowerlarni himoya qilish inson huquqlarini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, whistleblowerlarni himoya qilish bo'yicha samarali tizimga ega davlatlarda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash darajasi yuqoriroq bo'ladi.

Masalan, AQSHda 1989-yilda qabul qilingan Whistleblower Protection Act hamda 2010-yildagi Dodd–Frank Act korrupsion va moliyaviy jinoyatlar haqida xabar bergan shaxslarni nafaqat huquqiy jihatdan himoya qilish, balki ularni moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini ham joriy etgan. Janubiy Koreyada esa Anti-Corruption and Civil Rights Commission huzurida whistleblowerlarni himoya qilishning maxsus institutsional modeli shakllantirilgan bo'lib, u xalqaro amaliyotdagi eng samarali tizimlardan biri sifatida baholanadi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Xususan, korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarni rag'batlantirish va himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, korrupsiya haqida xabar beruvchi shaxslarning huquqiy maqomi, ularni qasos choralariidan himoya qilish mexanizmlarining samaradorligi, anonim murojaatlarning huquqiy tabiati hamda maxfiylik kafolatlarini ta'minlash bilan bog'liq masalalar ilmiy va amaliy jihatdan hali yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy tadqiqotlarda whistleblowerlarni himoya qilishning huquqiy, institutsional va kriminologik jihatlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekiston huquq tizimi sharoitida ushbu institutning xalqaro standartlarga muvofiqligi, amaliy samaradorligi va rivojlantirish istiqbollari bo'yicha kompleks tadqiqotlar yetarli emas. Ayniqsa, whistleblowerlarni himoya qilish va korrupsiya darajasi o'rtasidagi bog'liqlik, ularning korrupsiyaga qarshi siyosat samaradorligiga ta'siri hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi whistleblowerlarni himoya qilishning xalqaro standartlarini kompleks tahlil qilish, ilg'or xorijiy tajribani o'rganish hamda O'zbekiston Respublikasida

korruptsiya haqida xabar beruvchi shaxslarni himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda whistleblowerlarni himoya qilish tizimining xalqaro standartlari korruptsiya kriminologiyasi nuqtai nazaridan tizimli ravishda tahlil qilinadi, O'zbekiston qonunchiligining mazkur standartlarga muvofiqlik darajasi baholanadi hamda xabar beruvchi shaxslarni himoya qilishning milliy modeli bo'yicha mualliflik takliflari ishlab chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Whistleblowerlarni himoya qilish instituti korruptsiyaga qarshi kurashish, korporativ boshqaruv, inson huquqlari va davlat boshqaruvi samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur institutning nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshlagan bo'lib, ayniqsa 1970–1980-yillarda AQSHda sodir bo'lgan yirik korruptsiya va korporativ mojarolar ushbu masalaga ilmiy qiziqishni sezilarli darajada oshirdi.

Whistleblowing hodisasining ilmiy mohiyatini tadqiq etgan dastlabki olimlardan biri sifatida Marcia P. Miceli va Janet P. Near e'tirof etiladi [1]. Ularning tadqiqotlarida whistleblowing tashkilot ichida sodir etilgan noqonuniy yoki axloqiy jihatdan nomaqbul xatti-harakatlar haqida ma'lumotga ega bo'lgan shaxs tomonidan ushbu holatni bartaraf etish vakolatiga ega bo'lgan subyektlarga xabar berish jarayoni sifatida tavsiflanadi. Mualliflarning fikricha, whistleblowerlar korruptsiya va boshqa huquqbuzarliklarni aniqlashning eng muhim ichki manbalaridan biri hisoblanadi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan nazariy model whistleblowing qaroriga ta'sir qiluvchi omillarni individual, tashkiliy va institutsional darajalarda tahlil qilish imkonini beradi.

Keyingi yillarda Near va Miceli tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda whistleblowing samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar chuqur o'rganildi. Xususan, ular tashkilotda huquqbuzarlik haqida xabar berish madaniyati mavjud bo'lsa, xabar beruvchi shaxslarning ta'qib qilinish xavfi kamayishini va xabarlarining natijadorligi ortishini ilmiy asoslab berganlar. Ushbu yondashuv whistleblowerlarni himoya qilishni faqat huquqiy kafolatlar bilan emas, balki tashkilot madaniyati bilan ham bog'liq ekanligini ko'rsatadi [2;25].

Whistleblowerlarni himoya qilishning xalqaro standartlarini o'rganishda Peter B. Jubbning ilmiy qarashlari ham muhim ahamiyatga ega [3]. Olim whistleblowingni jamoat manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan fuqarolik pozitsiyasining namoyon bo'lishi sifatida baholaydi. Uning fikricha, whistleblowerlar ko'pincha tashkilot ichidagi noqonuniy faoliyatni fosh qiluvchi yagona manba bo'lib, ularni himoya qilmaslik korruptsiyaning yashirin shakllarini saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

David Banisar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa whistleblowerlarni himoya qilish tizimlarining xalqaro rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan [5]. Muallifning ta'kidlashicha, zamonaviy davlatlarda korruptsiyaga qarshi kurashish strategiyasining samaradorligi ko'p jihatdan xabar beruvchi shaxslarni himoya qilish mexanizmlarining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Banisar tomonidan o'rganilgan 50 dan ortiq davlat tajribasi shuni ko'rsatadiki, maxsus huquqiy himoya tizimiga ega davlatlarda korrupsion huquqbuzarliklarni aniqlash darajasi sezilarli yuqori bo'ladi.

Rob Brown [4], A.J. Brown va Wim Vandekerckhove [6] kabi tadqiqotchilar whistleblowerlarni himoya qilishning institutsional jihatlariga alohida e'tibor qaratganlar.

Ularning ilmiy ishlari xabar beruvchi shaxslarni himoya qilishda uchta asosiy element — maxfiylik, qasos choralaridan himoya qilish va mustaqil murojaat kanallarining mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Olimlar whistleblowerlarni himoya qilish mexanizmlarining muvaffaqiyati normativ-huquqiy bazaning mavjudligi bilan emas, balki uning amaliy ijrosi bilan belgilanishini qayd etadilar.

Whistleblowerlar institutining nazariy asoslari turli olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan.

Xususan, David Lewis whistleblowerlarni himoya qilish tizimini demokratik boshqaruv, ochiqlik va hisobdorlikni ta'minlashning muhim vositasi sifatida baholab, xabar beruvchi shaxslarni huquqiy himoya qilish davlat va xususiy sektor faoliyatida jamoat manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilishini ta'kidlaydi. C. Fred Alford esa o'z tadqiqotlarida whistleblowerlar ko'pincha tashkilot ichidagi bosim, kamsitish, ijtimoiy izolyatsiya va professional ta'qiblarga duch kelishini qayd etib, ularni himoya qilish nafaqat huquqiy, balki psixologik xavfsizlik nuqtai nazaridan ham muhim ekanligini asoslaydi. Shu bilan birga, Sissela Bok maxfiylik va oshkoralik o'rtasidagi muvozanat masalasiga e'tibor qaratib, ayrim hollarda jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunbuzarliklar haqida xabar berish axloqiy jihatdan oqlanishini ta'kidlaydi.

Mazkur yondashuvlar whistleblowerlar institutining huquqiy, psixologik va axloqiy jihatlarini kompleks tarzda tushunish imkonini beradi [7; 9; 10].

Xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham mazkur masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda whistleblowerlarni himoya qilish manfaatlar to'qnashuvi, poraxo'rlik va mansab vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarini aniqlashning eng samarali vositalaridan biri sifatida baholanadi. OECD ekspertlarining fikriga ko'ra, xabar beruvchi shaxslar uchun xavfsiz va ishonchli murojaat kanallarining mavjudligi korrupsiyaga qarshi siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy sharhlarda Konvensiyaning 33-moddasi whistleblowerlarni himoya qilish sohasidagi universal standart sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar ushbu norma davlatlarga xabar beruvchi shaxslarni himoya qilishning samarali huquqiy mexanizmlarini yaratish bo'yicha xalqaro majburiyat yuklashini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, ayrim olimlar mazkur moddaning tavsiviy xarakterga ega ekanligini va uni amalga oshirish darajasi davlatlarning siyosiy irodasiga bog'liqligini qayd etadilar.

Yevropa Ittifoqining 2019/1937-sonli Direktivasining qabul qilinishi whistleblowerlarni himoya qilish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. So'nggi yillarda chop etilgan ilmiy maqolalarda mazkur Direktivaning afzalliklari, qo'llanish mexanizmlari va milliy qonunchilikka implementatsiya qilish muammolari keng tahlil qilinmoqda.

Tadqiqotchilar Direktivaning asosiy yangiligi sifatida xabar beruvchi shaxslarni har qanday qasos choralaridan himoya qilishning kompleks tizimini yaratganligini ko'rsatadilar.

MDH davlatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlarida whistleblowerlarni himoya qilish masalasi nisbatan kam tadqiq etilgan. Mavjud ilmiy ishlarda asosan korrupsiyaga qarshi kurashishning umumiy masalalari yoritilgan bo'lib, xabar beruvchi shaxslarning huquqiy maqomi va himoya mexanizmlari yetarli darajada o'rganilmagan. O'zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida ham whistleblower instituti bo'yicha ayrim tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati mazkur institutning umumiy huquqiy tavsifiga bag'ishlangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy ilmiy tadqiqotlarda whistleblowerlarni himoya qilishning nazariy, huquqiy va institutsional asoslari keng yoritilgan bo'lsa-da, ushbu institutning korrupsiya kriminologiyasi nuqtai nazaridan samaradorligi, korrupsion jinoyatlarning latentligini kamaytirishdagi o'rni hamda O'zbekiston sharoitida xalqaro standartlarni implementatsiya qilish imkoniyatlari yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu mavzuning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi hamda qo'shimcha kompleks tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

METODOLOGIYA (METHODOLOGY)

Mazkur tadqiqotda korrupsiyaga qarshi kurashishda whistleblowerlarni (xabar beruvchi shaxslarni) himoya qilishning xalqaro standartlari hamda O'zbekiston Respublikasida mazkur institutning rivojlanish holati kompleks ravishda o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi korrupsiya kriminologiyasi, qiyosiy huquqshunoslik, xalqaro huquq, davlat boshqaruvi nazariyasi hamda inson huquqlarini himoya qilish konsepsiyalarining zamonaviy yondashuvlariga asoslandi.

Tadqiqotning ilmiy ishonchligini ta'minlash maqsadida umumilmiy va maxsus yuridik metodlarning o'zaro uyg'unlashgan tizimidan foydalanildi.

Tadqiqotning empirik bazasini whistleblowerlarni himoya qilishga oid xalqaro-huquqiy hujjatlar, xorijiy davlatlarning normativ-huquqiy hujjatlari, xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari, ilmiy maqolalar, statistik ma'lumotlar va milliy qonunchilik hujjatlari tashkil etdi.

Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) [12], OECDning whistleblowerlarni himoya qilish bo'yicha tavsiyalari [13], Yevropa Ittifoqining 2019/1937-sonli Direktivasi [16], AQSHning Whistleblower Protection Act (1989), Sarbanes–Oxley Act (2002), Dodd–Frank Act (2010), Buyuk Britaniyaning Public Interest Disclosure Act (1998), Janubiy Koreyaning Anti-Corruption and Civil Rights Commission faoliyatiga oid normativ hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchilik bazasi tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida birinchi navbatda dialektik metod qo'llanildi. Mazkur metod whistleblowerlarni himoya qilish institutining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy korrupsiyaga qarshi siyosatdagi o'rnini tarixiy hamda tizimli bog'liqlikda o'rganish imkonini berdi. Ushbu yondashuv orqali whistleblowerlar institutining oddiy axborot berish mexanizmidan korrupsiyaga qarshi kurashishning mustaqil institutsional vositasiga aylanish jarayoni tahlil qilindi.

Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy metod markaziy metodlardan biri sifatida qoʻllanildi. Mazkur metod yordamida AQSH, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Fransiya, Avstraliya va Yevropa Ittifoqi davlatlarida whistleblowerlarni himoya qilish mexanizmlarining huquqiy asoslari oʻrganildi. Xususan, xabar beruvchi shaxslarning huquqiy maqomi, murojaat qilish tartibi, anonimlik kafolatlari, qasos choralaridan himoya qilish mexanizmlari va ragʻbatlantirish tizimlari oʻzaro taqqoslandi. Qiyosiy tahlil natijalari Oʻzbekiston qonunchiligidagi mavjud normalarni xalqaro standartlar bilan solishtirish va ularni takomillashtirish yoʻnalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tadqiqotda formal-yuridik metoddan foydalanildi. Ushbu metod asosida xalqaro va milliy normativ-huquqiy hujjatlar mazmunan tahlil qilinib, whistleblowerlarni himoya qilishga oid huquqiy normalarning mohiyati, oʻzaro bogʻliqligi va qoʻllanish amaliyoti oʻrganildi.

Tahlil jarayonida amaldagi qonunchilikdagi huquqiy boʻshliqlar, kolliziyalar va amaliyotda uchrashi mumkin boʻlgan muammolar aniqlandi.

Tadqiqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida kontent-tahlil metodi qoʻllanildi.

Mazkur metod asosida Google Scholar, Scopus va Web of Science bazalarida indekslangan ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda xalqaro tashkilotlarning tahliliy materiallari oʻrganildi.

Tadqiqot doirasida whistleblowing, corruption reporting, anti-retaliation measures, whistleblower protection va public interest disclosure kabi kalit tushunchalar boʻyicha ilmiy manbalar tizimlashtirildi. Natijada mazkur institutning nazariy asoslari, rivojlanish tendensiyalari va samaradorlik omillari aniqlashtirildi.

Tadqiqotda statistik tahlil metodi ham qoʻllanildi. Bunda Transparency International tomonidan eʼlon qilinadigan Corruption Perceptions Index (CPI), World Justice Projectʼning Rule of Law Index koʻrsatkichlari, OECD va BMT hisobotlaridagi statistik maʼlumotlar oʻrganildi.

Statistik maʼlumotlarning tahlili whistleblowerlarni himoya qilish tizimlari rivojlangan davlatlarda korrupsion huquqbuzarliklarni aniqlash darajasi va davlat boshqaruvi shaffofligi koʻrsatkichlari nisbatan yuqoriligini aniqlash imkonini berdi.

Bundan tashqari, tadqiqotda kriminologik tahlil metodidan foydalanildi. Mazkur metod yordamida whistleblowerlarni himoya qilish institutining korrupsion jinoyatlar latentligini kamaytirishdagi oʻrni, korrupsion xavf omillarini aniqlashdagi ahamiyati hamda korrupsiyaning oldini olish mexanizmlariga taʼsiri oʻrganildi. Tadqiqot davomida whistleblowing mexanizmi korrupsiyaga qarshi kurashishning reaktiv vositasi emas, balki preventiv xarakterga ega institutsional mexanizm sifatida baholandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligini taʼminlash maqsadida sintez, analiz, induksiya va deduksiya metodlaridan ham foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida xalqaro tajriba, ilmiy qarashlar va normativ-huquqiy amaliyot umumlashtirilib, whistleblowerlarni himoya qilishning samarali modeli ishlab chiqildi. Mazkur model huquqiy kafolatlarni, institutsional mustaqillik, maxfiylik, ragʻbatlantirish va qasos choralaridan himoya qilish elementlarining oʻzaro integratsiyasiga asoslanadi.

Shunday qilib, tadqiqotda qoʻllanilgan metodlar majmui whistleblowerlarni himoya qilishning xalqaro standartlarini har tomonlama tahlil qilish, Oʻzbekiston tajribasini baholash

hamda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, whistleblowerlarni (xabar beruvchi shaxslarni) himoya qilish instituti zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurash tizimining markaziy preventiv elementlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ushbu institutning asosiy mohiyati korrupsion huquqbuzarliklarni aniqlash, ularni erta bosqichda fosh etish hamda davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlash orqali korrupsiyaning latent (yashirin) xarakterini kamaytirishga qaratilgan. Shu jihatdan whistleblower instituti jazolovchi (repressiv) emas, balki oldini oluvchi (preventiv) mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaning yuqori darajadagi yashirinligi ushbu institutning zaruriylikini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Xalqaro empirik tadqiqotlar, jumladan Transparency International, World Bank Governance Indicators va UNODC hisobotlari [15] korrupsion jinoyatlarning sezilarli qismi bevosita ishtirokchilar tomonidan emas, balki ichki axborotga ega bo'lgan shaxslar orqali aniqlanishini tasdiqlaydi. Bu esa korrupsiyani fosh etishda tashqi nazoratdan ko'ra ichki institutsional axborot oqimining strategik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

AQSH Qimmatli qog'ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) tomonidan yuritilayotgan Whistleblower Program doirasida 2011–2024-yillar davomida minglab huquqbuzarliklar fosh etilgan hamda xabar beruvchilarga milliardlab dollar miqdorida mukofotlar to'langan. Janubiy Koreya Anti-Corruption and Civil Rights Commission (ACRC) hisobotlariga ko'ra, whistleblowerlar orqali har yili minglab korrupsion holatlar aniqlanadi. Ushbu ko'rsatkichlar whistleblowerlarni himoya qilish tizimi korrupsiyani aniqlash va oldini olishning samarali instrumenti ekanligini tasdiqlaydi.

Xalqaro huquqiy standartlar tahlili whistleblowerlarni himoya qilish uch asosiy normativ tizim asosida shakllanganini ko'rsatadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (UNCAC) 33-moddasi davlatlarga korrupsiya haqida vijdonan xabar bergan shaxslarni himoya qilish bo'yicha zarur choralarni ko'rishni tavsiya etadi va bu norma xalqaro darajada minimal standart sifatida e'tirof etiladi [12]. OECD tavsiyalari esa whistleblower himoyasini uch asosiy ustunga — huquqiy himoya, maxfiylik kafolati va qasos choralaridan himoyaga — asoslaydi [13]. Yevropa Ittifoqining 2019/1937-sonli Direktivi esa ichki, tashqi va ommaviy xabar berish kanallarini majburiy joriy etish orqali eng kompleks huquqiy modelni shakllantirgan [16].

Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari AQSH, Buyuk Britaniya va Janubiy Koreya tajribasi whistleblowerlarni himoya qilish tizimining samaradorligi nafaqat huquqiy kafolatlarga, balki institutsional mustaqillik va rag'batlantirish mexanizmlariga ham bog'liqligini ko'rsatadi. AQSHda Whistleblower Protection Act (1989) [17] va Dodd–Frank Act (2010) [18;21] orqali joriy etilgan moliyaviy rag'batlantirish tizimi korrupsion va moliyaviy jinoyatlarni aniqlashda muhim rol o'ynagan bo'lib, bu model xabar beruvchini faqat huquqiy emas, balki iqtisodiy jihatdan ham himoya qilish samarali ekanligini isbotlaydi.

Buyuk Britaniyada Public Interest Disclosure Act (1998) asosida shakllangan tizim “jamoat manfaati” tamoyiliga asoslanib, whistleblowerlarni kamsitish va ta’qibdan himoya qilishni markaziy prinsip sifatida belgilaydi [19]. Janubiy Koreyada esa Anti-Corruption and Civil Rights Commission (ACRC) tomonidan boshqariladigan model anonimlik va institutsional ishonchni ta’minlashga yo’naltirilgan bo’lib, 2022-yilda 10 000 dan ortiq korrupsion holatlarning aniqlanishiga xizmat qilgan [20].

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha muhim institutsional islohotlar amalga oshirilgan [29;30]. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan korrupsion huquqbuzarliklar haqida xabar beruvchi fuqarolarni rag‘batlantirish tizimi joriy etilgan. Mazkur mexanizm fuqarolarning korrupsiyani fosh etishdagi faolligini oshirishga xizmat qilayotgan bo‘lsa-da, xabar beruvchilarni qasos choralaridan himoya qilish, anonimlikni ta’minlash va ularning huquqiy maqomini aniq belgilash bilan bog‘liq masalalar hanuz dolzarbligicha qolmoqda.

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, Prezident farmonlari hamda idoraviy normativ hujjatlar orqali korrupsiya haqida xabar berish mexanizmlari joriy etilgan bo‘lsa-da, amaliyotda bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, whistleblowerlarning huquqiy maqomi to‘liq institutsionallashmagan, anonimlik kafolatlari har doim ham samarali ta’minlanmaydi, qasos choralaridan himoya qilish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan hamda xabar berishning yagona mustaqil institutsional kanali shakllanmagan. Bu esa xabar berish motivatsiyasini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Kriminologik nuqtai nazardan whistleblower instituti korrupsiyaning latentlik darajasini kamaytiruvchi ichki nazorat mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Criminology doirasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, korrupsiya ko‘pincha tashqi nazorat emas, balki ichki axborot oqimi orqali aniqlanadi. Shu jihatdan whistleblower instituti korrupsion jinoyatlarning yashirin strukturaviy tabiatini buzuvchi muhim instrument hisoblanadi. Kriminologik va viktimologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, korrupsion va moliyaviy huquqbuzarliklarni aniqlashda whistleblowerlar muhim rol o‘ynaydi. Association of Certified Fraud Examiners (ACFE) tomonidan e’lon qilingan Occupational Fraud 2024: Report to the Nations hisobotiga ko‘ra, o‘rganilgan firibgarlik holatlarining 43 foizi aynan whistleblowerlar tomonidan berilgan xabarlar orqali aniqlangan bo‘lib, bu ko‘rsatkich boshqa aniqlash usullaridan uch baravar yuqori hisoblanadi. Shuningdek, xabarlarning 52 foizi tashkilot xodimlari tomonidan berilganligi ichki axborot manbalarining korrupsiyani fosh etishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [23].

Nazariy asos sifatida Donald Cressey tomonidan ishlab chiqilgan “fraud triangle” konsepsiyasi tahlil qilindi [8]. Ushbu nazariyaga ko‘ra, korrupsiya uch omil — bosim, imkoniyat va ratsionalizatsiya natijasida yuzaga keladi. Whistleblower instituti aynan “imkoniyat” komponentini cheklash orqali korrupsion xatti-harakatlar ehtimolini kamaytiradi va nazorat muhitini kuchaytiradi. Shuningdek, Miceli va Near tomonidan olib borilgan tadqiqotlar whistleblowing jarayonining samaradorligi tashkilot ichidagi axloqiy muhit, huquqiy himoya darajasi va psixologik xavfsizlik bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi [25].

Agar xabar beruvchi shaxs o'zini himoyalangan deb his etsa, korrupsion holatlarni fosh etish ehtimoli sezilarli darajada oshadi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan mualliflik yondashuvi whistleblower institutini besh asosiy komponent asosida izohlaydi: huquqiy himoya, institutsional mustaqillik, axborot xavfsizligi, psixologik himoya va rag'batlantirish tizimi. Ushbu komponentlarning integratsiyasi korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshiruvchi kompleks mexanizm sifatida baholanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari whistleblowerlarni himoya qilish tizimi rivojlangan davlatlarda korrupsion huquqbuzarliklarni aniqlash darajasi yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston sharoitida ushbu institutni takomillashtirish uchun xalqaro standartlarni milliy huquq tizimiga bosqichma-bosqich implementatsiya qilish, institutsional kafolatlarni kuchaytirish hamda xabar beruvchi shaxslar uchun real huquqiy va amaliy himoya mexanizmlarini yaratish zarurligi aniqlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS)

Mazkur tadqiqot whistleblowerlarni himoya qilish institutining korrupsiyaga qarshi kurash tizimidagi o'rni zamonaviy huquqiy, kriminologik va institutsional yondashuvlar asosida kompleks tahlil qilishga qaratildi. Olingan natijalar ushbu institutning faqat huquqiy mexanizm emas, balki davlat boshqaruvi shaffofligi va hisobdorligini ta'minlovchi tizimli boshqaruv instrumenti ekanligini ko'rsatadi. Whistleblowerlar instituti korrupsiyani aniqlashda "ichki axborot resursi" sifatida ishlashi bilan an'anaviy nazorat mexanizmlaridan tubdan farq qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashda eng muhim omillardan biri — axborot asymmetriyasi muammosidir. Korrupsion huquqbuzarliklar ko'pincha yashirin sodir etilgani sababli ularni aniqlashda tashqi tekshiruv mexanizmlari yetarli bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan whistleblower instituti axborot bo'shlig'ini to'ldiruvchi va korrupsion risklarni erta bosqichda aniqlovchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, samarali whistleblower tizimi uchta asosiy tayanchga ega bo'ladi: institutsional mustaqillik, huquqiy himoya kafolatlari va ishonchli axborot uzatish infratuzilmasi [13;26]. Ushbu uch komponentdan biri zaif bo'lgan tizimlarda xabar berish darajasi sezilarli pasayadi va korrupsion latentlik saqlanib qoladi. Shu jihatdan rivojlangan davlatlar tajribasi whistleblower himoyasi tizimli yondashuvni talab qilishini tasdiqlaydi [12;16;28].

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy baza shakllantirilgan bo'lsa-da, whistleblower institutining amaliy institutsionallashuvi hali to'liq darajaga yetmaganligi aniqlandi. Amaliyotda asosiy muammo sifatida xabar beruvchilarning huquqiy maqomi yetarlicha aniqlanmaganligi, himoya mexanizmlarining amalda sust ishlashi hamda xabar berish kanallarining markazlashmaganligi ko'zga tashlanadi. Bu esa fuqarolarning korrupsiyani xabar qilishga bo'lgan ishonchini pasaytiruvchi omil bo'lib qolmoqda [27].

Kriminologik nuqtai nazardan whistleblower instituti korrupsion jinoyatlarning yashirinligini buzuvchi "informatsion detonator" vazifasini bajaradi. U jinoyat sodir etish imkoniyatini kamaytirish orqali korrupsiyaning struktural sabablariga ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli ushbu institutni faqat huquqiy instrument sifatida emas, balki kriminal siyosatning strategik elementi sifatida baholash zarur.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchiidan, O‘zbekiston Respublikasida whistleblowerlarni himoya qilishga oid alohida maxsus qonunchilik hujjatini qabul qilish va unda xabar beruvchi shaxslarning huquqiy maqomi hamda davlat kafolatlarini tizimli ravishda belgilash zarur [29;30].

Ikkinchiidan, korrupsiyaga oid xabarlarini qabul qilish, tekshirish va himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi mustaqil institutsional organ yaratish orqali ijro hokimiyatidan institutsional ajratish tamoyilini kuchaytirish lozim.

Uchinchiidan, xabar berishning to‘liq raqamlashtirilgan, shifrlangan va anonim tizimini joriy etish orqali axborot xavfsizligi va foydalanuvchi ishonchini oshirish kerak.

To‘rtinchiidan, whistleblowerlarga nisbatan har qanday salbiy ta’sir choralarini qat’iy javobgarlik bilan taqiqlovchi huquqiy normalarni kuchaytirish maqsadga muvofiq.

Beshinchiidan, korrupsiyani fosh etishda ishtirok etgan shaxslar uchun xalqaro amaliyotga mos rag‘batlantirish tizimini joriy etish institutning samaradorligini oshiradi [21].

Tadqiqot natijalari whistleblowerlarni himoya qilish tizimi korrupsiyaning latentligini kamaytirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va hisobdorligini oshirish hamda fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashdagi ishtirokini kengaytirishda muhim institutsional mexanizm ekanligini ko‘rsatdi. Shu sababli ushbu institutni rivojlantirish korrupsiyaga qarshi milliy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, whistleblowerlarni himoya qilish tizimining rivojlanishi korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(REFERENCES)

1. Near J.P., Miceli M.P. Organizational Dissidence: The Case of Whistle-Blowing // Journal of Business Ethics. – 1985. – Vol. 4. – No. 1. – P. 1–16.
2. Miceli M.P., Near J.P. Blowing the Whistle: The Organizational and Legal Implications for Companies and Employees. – New York: Lexington Books, 1992.
3. Jubb P.B. Whistleblowing: A Restrictive Definition and Interpretation // Journal of Business Ethics. – 1999. – Vol. 21. – P. 77–94.
4. Brown A.J. Whistleblowing in the Australian Public Sector: Enhancing the Theory and Practice of Internal Witness Management. – Canberra: ANU Press, 2008.
5. Banisar D. Whistleblowing: International Standards and Developments. – Washington: World Bank Institute, 2011.
6. Vandekerckhove W. Whistleblowing and Organizational Social Responsibility. – London: Ashgate Publishing, 2006.
7. Lewis D. A Global Approach to Public Interest Disclosure. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2010.
8. Cressey D.R. Other People's Money: A Study in the Social Psychology of Embezzlement. – New York: Free Press, 1953.

9. Alford C.F. Whistleblowers: Broken Lives and Organizational Power. – Ithaca: Cornell University Press, 2001.
10. Bok S. Secrets: On the Ethics of Concealment and Revelation. – New York: Vintage Books, 1989.
11. Transparency International. Corruption Perceptions Index Reports. URL: <https://transparency.org>
12. United Nations Office on Drugs and Crime. United Nations Convention against Corruption (UNCAC). URL: unodc.org
13. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). OECD Anti-Corruption and Integrity Outlook. URL: <https://oecd.org>
14. World Bank. Worldwide Governance Indicators. URL: [info.https://worldbank.org](https://worldbank.org)
15. United Nations Office on Drugs and Crime. Research and Trend Analysis Branch. URL: unodc.org
16. European Parliament and Council. Directive (EU) 2019/1937 on the protection of persons who report breaches of Union law. URL: eur-lex.europa.eu
17. Whistleblower Protection Act of 1989 (United States). URL: <https://osc.gov>
18. Dodd–Frank Wall Street Reform and Consumer Protection Act, 2010. URL: <https://sec.gov>
19. Public Interest Disclosure Act 1998 (United Kingdom). URL: <https://legislation.gov.uk>
20. Anti-Corruption and Civil Rights Commission of Korea. Annual Reports. URL: <https://acrc.go.kr>
21. Securities and Exchange Commission. Whistleblower Program Annual Reports. URL: <https://sec.gov>
22. World Justice Project. Rule of Law Index Reports. URL: <https://worldjusticeproject.org>
23. Association of Certified Fraud Examiners. Occupational Fraud Reports. URL: <https://acfe.com>
24. Callahan E.S., Dworkin T.M. The State of State Whistleblower Protection // American Business Law Journal. – 2000. – Vol. 38.
25. Miceli M.P., Near J.P., Dworkin T.M. Whistle-Blowing in Organizations. – New York: Routledge, 2008.
26. International Bar Association. Whistleblower Protection and Integrity Systems. URL: <https://ibanet.org>
27. Open Government Partnership. Anti-Corruption and Public Accountability Resources. URL: <https://opengovpartnership.org>
28. United Nations Development Programme. Governance and Anti-Corruption Resources. URL: <https://undp.org>
29. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. Rasmiy ma’lumotlar. URL: <https://anticorruption.uz>
30. O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. URL: lex.uz 